

ISSN 2181-7812

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
**AXBOROTNOMASI**



**ВЕСТНИК**  
ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

СПЕЦВЫПУСК ПОСВЯЩЁН  
МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО -  
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ  
«Современные научные  
исследования в медицине:  
актуальные вопросы,  
достижения и инновации»



**2022**

TOSHKENT

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ  
ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ

2022

*2011 йилдан чиқа бошлаган*

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
**АХБОРОТНОМАСИ**



**ВЕСТНИК**  
ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

СПЕЦВЫПУСК ПОСВЯЩЁН  
МЕЖДУНАРОДНОЙ  
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ  
«Современные научные исследования в медицине:  
актуальные вопросы, достижения и инновации»

*Ташкент*

## AYOLLARDA SUT BEZI FIBROADENOMASI MORFOLOGIK TASHXISLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Yuldashev B.S. Xadjimuratova M.X.

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Urganch filiali. Urganch. O'zbekiston

*Fibroadenomalarning o'sishi estrogen bog'liq deb hisoblanadi: ammo hozirgacha ko'krak to'qimalariga ta'sir qiluvchi steroid gormon retseptorlarining hech biri sut bezi stromasida fibroepitelial zararlanish ko'rsatilmagan edi. Ushbu maqolada estrogen retseptorlari (ER) - $\alpha$  va - $\beta$  ifodasi fibroadenoma va yaxshi sifatli, uchta chegarali va malignizatsiyalangan fillodli o'simtalarida immunokistokimyo orqali tekshirish nazarda tutiladi. Bu izlanishlarning natijasida ularning barchasi shpindel shaklida o'sgan hujayralar va bitta uzoqlashgan metaztazlar aniqlangan.*

**Mavzuning dolzarbligi:** Sut bezi fibroadenomasi va fillodli o'simtasi ikki tomonlama shikastlanishlar bilan kechib, terminal kanal birligining ham epitelial, ham stromal qismlarida proliferatsiyalanishi bilan xarakterlanadi. Stromal hujayralar proliferatsiyasi odatda asosiy hodisa hisoblanadi, so'ngra ikkilamchi epiteliya hujayralari proliferatsiyalanadi. Bugungi kun tadqiqotlari stromal hujayra klonalligi, yomon sifatli fillod o'smalar neoplastik jarayon ekanligini ko'rsatgan bo'lsa-da, ko'pchilik fibroadenomalar lobar (bo'lakli) birlikning biriktiruvchi to'qimasini o'z ichiga olgan giperplastik jarayonlarning natijasidir[5]. Fibroadenomaning tabiiy kechishi turlichadir. Bemorning gormonal foni o'zgar-ganda ular o'sishi, regressiyasi yoki o'zgarishsiz qolishi mumkin, lekin ko'pincha diametri 2-3 sm ga yetganidan keyin o'sishdan to'xtaydi, bundan tashqari, stroma yosh o'tishi bilan kamroq hujayrali bo'lib, uning gialinizatsiyasi kuchayadi[2]. Ushbu ma'lumotlar (yosh ayollarda paydo bo'lishi va qariyalarda sklerotik involyutsiya) fibroadenomaning gormonal reaktivligini ko'rsatadi[1]. Ushbu gipoteza fibroadenoma bilan og'rigan bemorlar-da estradiolning plazmada yuqori darajasining yaqinda topilishi bilan tasdiqlanadi[5,6]. Xuddi shu bemorlarda estrogen metabolizmida ishtirok etadigan fermentlarni kodlovchi genlarning yagona nukleotidli polimorfizmlari ham ko'rsatildi. Bundan tashqari, tamoksifen bilan davolash fibroadenomalar stromasida proliferatsiya faolligini sezilarli darajada kamaytiradi. Estradiol va tamoksifengacha javob berishning klassik vositachisi estrogen retseptorlari (ER)- $\alpha$  hisoblanadi, ammo fibroadenomalar va fillodli o'smalarida ER- $\alpha$  asosan epiteliya hujayralari tomonidan ifodalanadi, stromal hujayralar tomonidan ifodalanishi esa bahsli bo'lib qolmoqda[3,5]. Yaqinda o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, Yoshi katta insonning sut bezlari stroma hujayralarida faqat ER-

$\beta$  izoformlari mavjud. Ushbu ma'lumotlarning barchasi shu soha olimlarini fibroadenomalar va fillodli o'smalarida ER-  $\beta$  stromal hujayralar tomonidan ifodalanishi mumkinligini tekshirishga undadi[4,5]. Bundan tashqari, yaqinda sut bezi fibroepitelial shikastlanishlarida silliq mushak hujayralarining umumiy differensiallashishini va boshqa estrogen bog'liq bo'lgan organlarning mushak hujayralarida ER-  $\beta$  ning yuqori darajasini kuzatishdan so'ng, olimlar marker sifatida silliq mushak aktin va kolponin yordamida stromal hujayralarning immunofenotipini o'rganishdi[5].


**Ishning maqsadi.** Ayollardagi disgormonal kasalliklarning fibroadenoma kasalligi bilan bog'liqligini o'rganish.

### Material va uslublar:

2015-2020 yillarda RIO va RIATM Xorazm filiali poliklinika bo'limiga murojat qilgan bemorlarning ambulator kartalari va ularning kasalliklar tarixlari bo'yicha retrospektiv taxlili.

**Natijalar:** RIO va RIATM Xorazm filiali poliklinika bo'limiga murojat qilgan jami 515 nafar ayollarning ambulator kartalari taxlil qilindi, shulardan 232 (45,00%) nafarida fibroz-kistoz mastopatiya (FKM), 159 (30,80%) nafarida fibroadenoma (FA), 38 (7,3%) nafarida tugunli yoki fibroz mastopatiya(FM), 10(1,9%) nafarida steatonekroz, 23 (4,4%) ta papilloma, 18(3,5%) ta kistoz mastopatiya(KM), 21(4,0%) lipoma, 14 (2,7%) duktoektoziya kasalliklari aniqlandi. Kuzatuvga olingan 64(12,4%) nafar bemordan (rak oldi jarayonlar), 27(5,2%) nafarida malignizatsiya kuzatilgan, 20 ta bemorda xavfliga o'tish extimoli yuqori, qolgan 17 ta bemor davolash natijasi samarali yakunlangan.

Jami 159 ta FA bo'lgan bemorlarni tumanlar kesimida Fibroadenoma uchrash bo'yicha Xazarasp tumanida (45 nafar aёлларда) ko'p uchragan.



Malignizatsiyaga uchragan 27 nafar bemorning tumanlar kesimida yosh guruxlarga ajratilganda quydagi jadvaldagi natijalarni ko'rishimiz mumkin.

	18-44 yosh	45-59 yosh	60-74 yosh	75 yoshdan yuqori	Jami	%
Urganch shaxar	5	5		1	11	40,7
Urganch tumani			1		1	3,7
Xonka tumani	2				2	7,4
Xozarasp tum	2	4		1	7	25,9
Bog'ot tumani	2		1		3	11,1
Yangibozor tum	1		2		3	11,1
Jami	12	9	4	2	27	
Foizlarda (%)	44,4	33,4	14,8	7,4	100%	100%

Lokalizatsiyasi bo'yicha o'ng sut bezida 10 (37%) nafar, chap sut bezida 16 (59,2%) nafar va xar ikkala sut bezida 1 (3,7%) nafar bemorlarda kuzatilgan. Bu malignizatsiya bo'lgan bemorlarning 11 (40,8%) tasi fibroadenoma kasalligi bilan bir necha yillar davolanib yurishgan.

Malignizatsiyalanish muddatini ko'rib chiqadigan bo'lsak, 1 oy muddatda 1 nafar bemor, 3 oy muddatda 3 nafar bemor, 6 oyda 2 nafar bemor, 1 yilda 7 nafar bemorda, 2 yilda 1 nafar, 3 yilda 2 nafar bemor, 4 yilda 2 nafar bemor aniqlandi 8 ta xolatda malignizatsiyalanish muddati aniqlanmadi.

11 ta fibroadenoma bo'lgan bemorlarning davolanish bosqichlarini o'rganish natijasi quydagi diagrammada keltirilgan.

Yomon sifatli o'smaga aylangan 27 nafar bemorning biopsiyadan olingan materiallarni gistologik tekshirib ko'rganimizda, yo'lakcha ichi cancer in situ 1 ta xolatda, yo'lakchali invaziv o'sma 5 ta xolatda, yo'lakchali infiltrlanuvchi o'sma 6 ta xolatda, adenokarsinoma 8 ta xolatda, bo'lakli karsinoma 3 ta xolatda, yo'lakchali infiltrlanuvchi karsinoma 6 ta xolatda, yo'lakchali infiltrlanmaydigan rak 1 ta xolatda, invaziv nospetsifik rak 2 ta xolatda va skirroz turi bilan 1 ta xolatda aniqlandi.

Bemorlarning kasallik bosqichlarini TNM klassifikatsiyasini solishtirib o'rganganimizda,  $T_1N_0M_0$  -8 (29,6%) ta bemorda,  $T_2N_0M_0$  -5 (18,5%) ta bemorda,  $T_2N_1M_0$  -5 (18,5%) ta bemorda,  $T_2N_3M_0$  -1 (3,7%) ta bemorda,  $T_2N_1M_1$  -3 (11,7%) ta bemorda,  $T_4N_1M_0$  -4 (14,8%) ta bemorda,  $T_{4b}N_2M_0$  -1 (3,7%) ta bemorda aniqlandi.

Bundan ko'rinib turibdiki sut bezining rak oldi kasalliklari ayollarning 18-44 yoshgacha bo'lgan bo'g'inida ko'proq kuzatilib, gormonal statusning o'zgarishi bunday ayollarda sut bezi o'smasiga displaziyalanishiga sabab bo'ladi. O'rganilgan ayollarning 27 tasida bunday o'zgarishlar mavjud bo'lib, ulardagi xavfsiz o'smalar malignizatsilanib,

xavfli o'smalarga aylanishini kuzatdik. Vaxolanki, bu juda yomon ko'rsatkich bulib, jami o'rganilgan kasallarning 5,2% ini tashkil etadi. Bemorlarning 11 tasida (40,8%) fibroadenoma kasalligi mavjud bo'lib ularning 18% ida davo muolajalarini vaqtida boshlamadan kech bosqichlarga borguncha o'tkazib yuborishlari achinarli xol albatta. Bunday ayollarning anamnezida normal jinsiy xayotning mavjud emasligi, ko'p bola tashlash, abortlar sonining ko'pligi va doimiy jinsiy a'zolarida bo'ladigan yallig'lanish va kista kasalliklarining mavjudligi ilmiy ishimizda muxim ahamiyatga ega.

**Xulosa** qiladigan bo'lsak, ayollardagi fibroadenoma kasalligining proliferatsiyalanish mexanizmlarini, gormonal statusga, yoshga bog'liqligini (eng ko'p yoshlarda 18-44 yosh -72% xolatda), yaxshi sifatli o'smalarning malignizatsiyalanish darajasini o'rganish, sut bezi saratonini erta aniqlashda va oldini olishda muhim ahamiyatga ega xisoblanadi va poliklinika, birlamchi tibbiy xizmat bo'g'inlarida onkologik ehtiyotkorlikni kuchaytirish yosh ayollar o'rtasida kasallikning keng tarqalish xolatlarining oldini olish uchun xizmat qilgan bo'lar edi.

#### Adabiyotlar

1. "Современная стратегия профилактики рака молочной железы". Мещеряков А.А. 2017г.
2. «Интраэпителиальная неоплазия молочной железы». Ефремов Г.Д. 2013г.
3. «Патоморфологическое и иммуногистотоксическое исследование миоэпителий при гиперпластических процессах и ракомолочной железе». Ившина Ю.А 2005г.
4. Клинико-морфологические особенности мультицентрического роста и рецидивирования при раке молочной железы. Вторушин С.В. 2012г.
5. Estrogen receptor- $\beta$  is expressed in stromal cells of fibroadenoma and phyllodes tumors of the breast A Sapino 2006 Цитируется: 91 May 2006 Modern Pathology 19(4):599-606.
6. "Sut bezi saratonini tashxisini kuyish va davolashda klinik-morfologik va molekulyar genetik jixatlari." Kaxharov A.J. 2019y.

Шаймардонов Б.Х., Жалилов Н.Ж. АКТУАЛЬНОСТЬ И РЕЗУЛЬТАТИВНОСТЬ РАННЕГО ВЫЯВЛЕНИЯ ЗАБОЛЕВАНИЙ ОРГАНОВ ПИЩЕВАРЕНИЯ ПРИ ДИСПАНСЕРИЗАЦИИ ВЗРОСЛОГО НАСЕЛЕНИЯ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ	370
Ergasheva U.S., Jalilov J.J. NOGIRON BOLALARNING REABLITATSIYASI VA PROFILAKTIKASI	374
Yuldashev B.S. Xadjimuratova M.X. AYOLLARDA SUT BEZI FIBROADENOMASI MORFOLOGIK TASHXISLSHNING DOLZARB MUAMMOLARI	377
Абдурахманов Ф.Ф., Ачилов Д.Д. ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРЕПАРАТОВ ФЛУОКСЕТИНА ГИДРОХЛОРИД И НАЗАЛЬНОГО СПРЕЯ КЛОМИПРАМИНА ГИДРОХЛОРИД 2.5 ГР У ПАЦИЕНТОВ С ПРЕЖДЕВРЕМЕННОЙ ЭЯКУЛЯЦИЕЙ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ДВУХ ВИДОВ ЛЕЧЕНИЯ И СРАВНЕНИЕ С ПЛАЦЕБО	379